

**O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY  
TEXNALOGIYALARNING O'RNI****Baxtiyarova Farzona Ikrom qizi***Guliston davlat pedagogika instituti talabasi,***Jumaboyev Nabi Pardaboyevich***ilmiy rahbar Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiy:** *Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari, talana-yoshlarning ijodiy yaratuvchanlik qobilyatlarini rivojlantirish va shakllantirish masalalari haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil ta'lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya, vizualizatsiya.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Ilg'or pedagogik tajribalar ommaviy xarakter kasb etishi uchun o'qituvchi obyektiv pedagogik nazariyalarni o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Pedagogik tajribalarning turli-tumanligini novatorlik hamda tadqiqotchilik orqali ko'rish mumkin. Bunda o'qituvchi amaliy faoliyatdan nazariy tahlil va umumlashtirishga o'tadi. Bunday yondashuvlarda yurtimiz ta'lim tizimiga xos bo'lgan innovatsion qarashlar va usullar o'z ifodasini topadi. Pedagogik faoliyatni bosqichma-bosqich rivojlantirish, zamonaviy innovatsiyalarni o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonini o'z ichiga olgan innovatsion texnologiyalar bo'lajak mutaxassislariga o'z hayotiy ta'lim faoliyatlarini mustasqil ravishda moslashtira oladigan faol, ijodkor bo'lib yetishtirishlariga yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyalarning maqsadi ta'lim jarayoni sifatini oshirish, pedagogik amaliyotni sifat va miqdor jihatdan o'zgartirishdir. Biz zamonaviy ta'limni matn, grafik, video va dars sifatini yaxshilaydigan multimedia texnologiyalari va shu orqali o'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanmasdan tasavvur qila olmaymiz. Tavsia etilgan rasmlar, tasvirlar o'quvchining vizual aks ettirishi va ko'rish qobilyatini materiallarni to'liq idrok etishiga yordam beradi. Natijadaular nazariy va vizual materiallarni birlashtira oladilar. Vizual ma'lumotlardan foydalanilganda, tasavvur va og'zaki tariflarga qaraganda o'rtacha 5-6 marta tezroq natijaga erishadi. Insonning vizual ma'lumotlarga ta'siri og'zaki ma'lumotlarga qaraganda ancha yuqori. Ko'p hollarda u oxirgisini o'tkazib yuboradi. Vizual ma'lumotni takrorlash osonroq va aniqroq. Shaxsning vizual ma'lumotlarga ishonchi og'zaki ma'lumotlardan yuqori. Binobarin, "yuzlab eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", deb bejiz aytilmagan.

Dars jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari (loyiha), interfaol texnikalar (aqliy hujum, tushunchalarni tushunish, ketma-ket mantiqiy zanjirlar) va B-B-B klasteridan ("Nima uchun" grafik organeyzerlari, masalan, "Qanday" diagrammasi va turkumlashtirish jadvallari) samarali qo'llanilishi mumkin. Talaba-yoshlarning pedagogik intellekt va kasbiy malaka darajasini aniqlashga qaratilgan turli nostandart testlardan foydalanish kompyuter vositalari

orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, test topshiriqlari faqat soʻzlar bilan emas, balki jonlantirilgan sahifalar koʻrinishida paydo boʻladi. Kompyuter texnologiyasidan foydalanish qiziqarli va yoqimli boʻlib, talaba-yoshlar shaxsiy fazilatlarini tarbiyalaydigan jiddiy ijodiy faoliyatga jalb qilinadi. Tasviriy sanʼat ijobiy muhitni yaratadiva asta-sekin oʻquvchlarda dunyoqarashini oshiradigan maʼlum madaniy va axloqiy xususiyatlari rivojlana boshlaydi.

Pedagogik texnologiyalar 1980-yillarda AQSHda yaratila boshladi. Hozirgi kunda ularning soni kata songa oshib ketgan. Oʻquv mashgʻulotlarida olib boriladigan pedagogik texnologiya turlaridan ayrimlarini misol tariqasida keltirish oʻrinli. Ular:

Multimediali texnologiyalar - apparatli vositalar yordamida bilimlar bazasi axborotlar bilan tanishuv mantigʻini erkin tanlashga, axborotni ovoz, video kinofragmentlar, multiplikatsiya bilan birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga kompyuterli immitatsiyalarni mikrodunyolarni va ularning manbasini talaba-yoshlarda alohida qiziqish chaqiruvchi didaktik va rivojlantiruvchi oʻyinlarni yaratish imkonini ham beradi.

Modul oʻqitish texnologiyasi - deyilganda fan, oʻquv predmetining oʻziga xos xususiyatlarini eʼtiborga olib, taʼlim samaradorligini oshirish maqsadida oʻquv materialini yirik turkumlarga ajratib oʻrgatish, uning maxsus boʻlimlariga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish tushuniladi.

Oʻyinli pedagogik texnologiyalardan - foydalanishning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Oʻyin ijtimoiy tajribalarni oʻzlashtirish va qayta yaratishga yoʻnalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning oʻz xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi - pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirishga asoslangan. Hamkorlikda oʻqitish mashgʻulotlarining asosiy jarayonlari; hamkorlikda fikr almashinish, tahkik, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani koʻrish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

Muammoli taʼlim texnologiyasining - asosi-insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishni boshlanishi hamda muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Mualliflik texnologiyasi - pedagogik strategiya sifatida talaba-yoshlar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega.

Axborot texnologiyalari - axborotni yigʻish, saqlash, uzatish, oʻzgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yigʻindisidan iborat. Oʻqitishning yangi axborot texnologiyasi deganda, faqat oʻquv tarbiya jarayonida qoʻllanishi mumkin boʻlgan eng yangi axborot texnologiyalari tushuniladi.

Tanishuv texnologiyasi - oʻquv jamoasi ishtirokchilarini bir birlari bilan tanishtirish, samimiy doʻstona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, talaba-yoshlarning ijodiy imkoniyatini va shaxsiy sahifalarini ochish, auditoriyaning ishlashi uchun qoʻllaniladi.

“Bumerang” texnologiyasi - bir mashgʻulot davomida oʻquv materialini chuqur va yaxlit holatda oʻrganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yoʻnaltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega boʻlgan mavzularni oʻrganishga yaroqli boʻlib, oʻz ichiga ogʻzaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashgʻulot

davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan talaba yoki o'qituvchi rovida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

“Zinama-zina” texnologiyasi – talaba-yoshlarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi.

“Charxpalak” texnologiyasi – talaba-yoshlarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tamonidan barcha talaba-yoshlarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

“3x4” texnologiyasi – talaba-yoshlarni aniq bir muammoni (yoki biror bir mavzuni) yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib) fikrlab hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan kerakli keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi.

“Muammo texnologiyasi – talaba-yoshlarga predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni tog'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni tog'ri aniqlashga o'rgatishdan iborat.

O'rganishlar natijasida tasviriy san'at darslarida kompyuter texnikasini amaliy qo'llash va ulardan foydalanish bo'yicha quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Kompyuter o'qituvchi va o'quvchilar muloqotini yaxshilashda ijobiy natijalarga erishish uchun qulay va keng imkoniyatlarga ega.

2. Ta'limda ko'rgazmali tushuntirishlar va reproduktiv usullardan foydalanishning yangi va sifatli darajasini ta'minlaydi.

3. Darsda axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar bilimni oshiruvchi, diqqatni jamlovchi va ijodiy qobiliyatlarini oshiradigan ta'lim shaklidir.

4. Pedagogik maslahatlar bilan o'quv dasturidan mustaqil foydalanish orqali rassomlik va kompazitsiya san'atini egallash imkoniyatini beradi.

5. Proyektorlardan foydalanish matnlar bilan ishlashni, o'quv videolarni taqdim etishni, ko'rinishni oshirishni va tejashni osonlashtiradi.

6. Elektron ensiklopediyalar, dunyo muzeylari va ko'rgazma zallari bo'ylab virtual sayohatlar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

7. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning internet orqali ma'lumotlarni qidirish, topish, tanlash va saqlash kabi mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi.

8. Testlardan foydalanish nafaqat vaqt orttirish, moddiy xarajatlarni kamaytirish, balki bilim va imkoniyatlaringizni xolisona baholash imkonini beradi.

9. Darslarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning tasviriy san'atga qiziqishini, ta'lim sifatini oshiradi.

10. Rasmlar, chizmalar, sxemalarni vizual va rangli vizual kuzatish, fotosuratlar va videolar yordamida obyektlarni vizualizatsiya qilish, mavzu bo'yicha materialni tog'ri idrok etish tanlangan materialni qiziqarli tarzda tasvirlashga yordam beradi. Shunday qilib darsda va

darsdan tashqari mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish vaqtini tejashga, shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishga va psixopedagogik bilimlarga asoslangan faoliyatni tashkil etishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. T.: TDPU, 1997. 21-b.
2. Rajabov R.K., Sultonov H.E., Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: 2008.
3. Azizxodjayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: "Moliya", 2003. 65-b.
4. Karimov A. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik asoslari. "Xalq ta'limi" j. - t., 2017. 5-son. 57-b.
5. Jumaboyev N.P. Bola dunyoqarashi shakllanishida tasviriy san'atning roli. "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi 26-son, 10-qism (pedagogika) Toshkent, 31.03.2021.
6. Salimov B. Ta'lim tizimida fan va innovatsion texnologiyalarning uyg'unligi. "Xalq ta'limi" j. - t., 2018. 1-son. 144 b.